



BANDLIK TARKIBINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNDA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xolmuminov Aktam Xolmumin o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Tayanch doktoranti, Toshkent, O'zbekiston.
Email: kholmuminov_1994@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6262-2894

FOREIGN EXPERIENCE IN FORMING EMPLOYMENT STRUCTURE AND POSSIBILITIES OF ITS USE IN UZBEKISTAN

Kholmuminov Aktam Kholmuminov oğlu
Tashkent State University of
Economics PhD student,
Tashkent, Uzbekistan.
Email: kholmuminov_1994@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6262-2894

Annotatsiya. Mazkur maqolada bandlik tarkibini shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari, xorijiy mamlakatlarda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar hamda ushbu tajribadan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Hozirgi globallashuv, raqamli iqtisodiyot va texnologik modernizatsiya jarayonlari mehnat bozorida yangi kasblar, malakalar va bandlik shakllarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shu sababli bandlik tarkibini iqtisodiyot tarmoqlari, hududiy rivojlanish darajasi, demografik omillar va mehnat resurslari salohiyatidan kelib chiqib shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozorini tartibga solish, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning bandligini oshirishga qaratilgan institutsional, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlar o'rganiladi. Xususan, xorijiy tajribada dual ta'lim tizimi, faol mehnat bozori dasturlari, subsidiya va soliq imtiyozlari, kichik biznesni qo'llab-

quvvatlash, masofaviy bandlik va o'zini o'zi band qilishni rag'batlantirish kabi yo'nalishlar samarali vosita sifatida namoyon bo'layotgani asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston mehnat bozorida mavjud tarkibiy muammolar, jumladan, norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi, hududlar kesimida ish o'rinlarining notekis taqsimlanishi, kasbiy malaka va bozor talabi o'rtasidagi nomutanosiblik masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida xorijiy tajribaning milliy sharoitga mos jihatlarini joriy etish orqali rasmiy bandlikni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholining barqaror daromad manbalarini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Mazkur maqola natijalari bandlik siyosatini takomillashtirish hamda mehnat bozorida tarkibiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bandlik, bandlik tarkibi, mehnat bozori, xorij tajribasi, samarali bandlik, rasmiy bandlik, norasmiy bandlik, mehnat resurslari, kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash, yangi ish o'rinlari, hududiy bandlik, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract. This article scientifically analyzes the theoretical and methodological foundations of the formation of the employment structure, the best practices used in foreign countries to ensure employment of the population, and the possibilities of using this experience in the conditions of Uzbekistan. The current processes of globalization, digital economy and technological modernization are leading to the emergence of new professions, skills and forms of employment in the labor market. Therefore, the formation of the employment structure based on economic sectors, the level of territorial development, demographic factors and the potential of labor resources is of great importance. The article studies the institutional, financial and organizational mechanisms aimed at regulating the labor market in developed countries, developing the system of vocational training and retraining, and increasing the employment of youth, women, persons with disabilities and groups in need of social protection. In particular, it is substantiated that in foreign experience, such areas as the dual education system, active labor market programs, subsidies and tax incentives, support for small businesses, remote employment and encouragement of self-employment are effective tools. The article also examines the structural problems existing in the labor market of Uzbekistan, including the high share of informal employment, uneven distribution of jobs across regions, and the imbalance between professional qualifications and market demand. As a result of the study, scientific and practical proposals will be developed to expand formal employment, create new jobs, effectively use labor resources, and increase stable sources of income for the population by introducing aspects of foreign experience appropriate to national conditions. The results of this article will serve to improve

employment policy and ensure structural balance in the labor market.

Keywords: employment, employment structure, labor market, foreign experience, productive employment, formal employment, informal employment, labor resources, vocational training, retraining, new jobs, regional employment, economy of Uzbekistan.

Kirish

Jahon amaliyotida globallashtirish jarayoni hamda uning mehnat bozori shakllanishi va rivojlanishiga bo'lgan ta'siri moliyalashtirish masalalari ham ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishiga aylangan. Xususan, mehnat bozori egiluvchanligi, institutsionallashtirish va ijtimoiylashuvining kuchayishi sharoitida uning moliyaviy ta'minoti tizimini takomillashtirish, mehnat bozoridagi raqobatni rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish, yuqori ta'lim darajasini talab qiluvchi yangi faoliyat turlarini moliyalashtirish usullarini joriy etish, nostandart bandlik shakllarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan moliyaviy instrumentlarni kengaytirish, ish vaqtining yangi modellariga mos moliyaviy rag'batlantirish tizimini yaratish, ishlovchilar daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlovchi moliyaviy choralar tizimini borilmoqda. Shuningdek, milliy mehnat bozori, transmilliy kompaniyalar va Xalqaro Mehnat Tashkiloti o'rtasidagi hamkorlikni moliyaviy jihatdan mustahkamlashga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar ham alohida

O'zbekistonda istiqbolda bandlik tarkibini takomillashtirishga qaratilgan strategik rejalarida "Mehnat bozorida faol chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususiy mulkni muhofaza qilish, kichik va yirik biznesni hamda xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va tezkor rivojlantirishdagi to'siqlarni bartaraf etish

orqali aholini, ayniqsa, yoshlar, nogironlarni munosib ish bilan ta'minlash va samarali bandlikni kengaytirishga yo'naltirilgan qulay shart-sharoit yaratish"[1] iqtisodiyotning samarali tarkibini va unga mos ravishda mehnatga layoqatli aholining oqilona hamda samarali bandligini shakllantirishda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan ekanligini ko'rsatmoqda.

tarkibi klassik nazariyasining negizini A.Smitning mehnatqiymat nazariyasi –tovar qiymatining yagona va umumiy o'lchovi sifatidagi mehnat to'g'risidagi qoidalar tashkil deb ta'kidlaydi. Uning bosh g'oyasi shundan iboratki, bozor va erkin raqobat sharoitida shaxsiy manfaat, "ko'rinmas qo'l" jamiyatdagi muvozanat va takomillashuvni, yakka va umumiy ne'matga erishuvni ta'minlaydi. Hech qanday inson alohida, o'z holicha jamiyat manfaatlariga ko'maklashishni ko'zlamaydi, - deb yozadi A.Smit, faqat o'z foydasini ko'zda tutadi, "ko'rinmas qo'l" esa uning maqsadlariga

hlari xaridorlarni ham, sotuvchilarni ham iqtisodiy samarali harakatga rag'batlantiradi. Bandlik tarkibiga tatbiqan bu uning bozor mexanizmi orqali belgilanishi va tartibga solinishida namoyon bo'ladi. Mehnat ta'minlanganligini bildiradi. U boylikning ko'payishi manbaini moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bo'yicha ijtimoiy foydali mehnatda ko'radi, faqat shunday mehnatni unumli

D.Rikardo (1772-1823) – klassik

davridagi ingliz iqtisodchilarining rahbari sifatida tan olingan. D.Rikardo mehnat-qiymat nazariyasini qat'iy yoqladi, qiymat qonunini bozor xo'jaligining eng umumiy sarflangan mehnatga to'g'ri mutanosiblikda bo'lishini ta'kidladi[3].

Sub'ektiv manfaat tufayli yuqori foyda normasiga intilish ishlab chiqarishning o'sishini rag'batlantiradigan omil ekanligini, shakllanishiga ta'sir ko'rsatishini asosladi. Shunday qilib, klassiklar bozor tizimi resurslardan, shu jumladan, mehnat resurslaridan to'liq foydalanishni ta'minlashga layoqatli, deb hisobladilar. Ular to'liq bandlik bozor iqtisodiyotining me'yori hisoblanishini, eng yaxshi iqtisodiy siyosat esa – davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi ekanligini ta'kidladilar.

Fransuz olimi Jan Batist Sey (1767-1832) bozor va bandlik nazariyasiga o'z hissasini qo'shdi. Uning nazariyasi asosida ishlab chiqarishning uch omili – mehnat, kapital va yer yotib, ularga daromadlarning uch manbai – ish haqi, foyda va renta mos keladi. Har bir ishtirokchi mos ravishda, o'z ulushini oladi. Klassiklar bozorni iqtisodiyot rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi, deb ko'rsatishgan, iqtisodiyotda ortiqcha ishlab chiqarish ham, taqchilik ham, ishsizlik ham, ishchi kuchining yetishmovchiligi ham bo'lishi mumkin emas, bozor tartibga solishi to'liq bandlikni ta'minlaydi, deb hisoblashgan. Buning isbotini ular bozordagi talabning doimo taklifga tengligida, daromad oluvchilar esa uni to'la sarflashlarida ko'rishgan. Ularning fikricha, qonunning bunday amal qilishi natijasida bandlik tarkibidagi nomutanosibliklar hal qilinishi va to'liq bandlik ta'minlanishi kerak[4].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab "marjinalizm", deb atalgan oqim vujudga kelib, shakllana boshladi. Uning

vakillari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyandalari (K.Menger, F.Vizer, B.Baverk va b.) bo'lib, ular tomonidan qo'shilgan mehnat unumdorligining pasayib borish qonuni, degan nazariya ishlab chiqildi. Ushbu qonun asosida mehnatga bo'lgan talab va ish haqi o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sir tahlil qilingan. Ular iqtisodiyot tarmoqlaridagi bandlikni ish beruvchining foydali samaraga ega bo'lishi sababli ro'y beradi, ular ishchi kuchini qanchalik qadrlashlariga bog'liq bo'ladi, deb hisoblaydilar.

Neoklassiklarning (A.Marshall, L. Valras, Y. Shumpeter, M. Veysman, A.Pigu) bandlikdagi tarkibiy o'zgarishlarga bir negizli (monistik) yondoshuvdan chekinishi, xususan, A.Marshallning ishlari bilan bog'liq. Neoklassiklarning qoidalari ishchi kuchi qiymatining yagona manbai, ish haqining yagona asosi va bozor xo'jaligida bandlik tarkibidagi o'zgarishlarning yagona manbai topilishi zarurligini bildiradi. Bunday yagona manba masalan, ingliz klassik iqtisodiy maktabida mehnat, marjinalistlarda qo'shilgan miqdor nafliligi, texnologik yondoshuvda texnika va texnologiyadagi o'zgarishlar hisoblanadi[5].

ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning har bir hududida o'zining ko'zga ko'rinarli ijobiy samarasini berayotgani sir emas. Ammo shuni ham aytish lozimki, mamlakatda yoshlarni bandligini ta'minlash, ijtimoiy ta'kidlash kerakki, kelajakdagi mustaqil O'zbekistonning yo'nalishini belgilab beruvchi yagona kuch – yoshlardir. Yoshlar ular davom etayotgan o'zgarishlarning ko'rsatkichlari bo'lib, jamiyat taraqqiyoti

ni moliyalashtirishda venchur kapitali asosida bosqichma-bosqich "moliyaviy inkubatsiya modeli"ni ishlab chiqish va uni "Yoshlar Ventures" venchur jamg'armasi faoliyatiga

yosh tadbirkorlarning innovatsion g'oyalarini ilmiy, texnologik va bozor

"yoshlar ventures" jamg'armasi orqali har yili 300 ga yaqin innovatsion startapni qo'llab-quvvatlash, istiqbolda muvaffaqiyatga erishish salohiyati yuqori bo'lgan namunaviy modelni ishlab chiqish jarayonidagi startap loyihaga 500 mln so'mgacha, o'zbekiston bozorida muvaffaqiyatli joriy qilingan startap loyihaga 1 mlrd so'mgacha, xorijiy bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan startap loyihaga 2 mlrd so'mlik venchur sarmoya aylanmasini ta'minlash va 500 dan ziyod yangi ish o'rni

Rivojlangan davlatlar tajribasi tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda, uni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlashda, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirishda o'ta muhim rol o'ynashidan, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbai ekanligidan yaqqol dalolat beradi. O'zbekiston uchun aholini ish bilan ta'minlash yoki o'zini o'zi

antirish maqsadida Prezident qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-



quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2025 yil 14 fevraldagi PQ-60-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosi aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar hamda biznes sohasi vakillarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari bo'lib xizmat qiladi. Jumladan

tadbirkorlikka keng jalb qilish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-

2024 yilda yoshlar bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha amalga

№				Hokim yordamchilarini tavsiyasi asosida ajratilgan subsidiya			
	Qoraqalpog'iston						
	Farg'ona						

So'nggi yillarda nogironligi bo'lgan insonlarning hayot sifatini oshirish, ularning jamiyatda to'laqonli va teng huquqli a'zo sifatida ishtirok etishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada kompleks va tizimli islohotlar amalga oshirilib, avvalo, huquqiy baza takomillashtirildi, nogironligi bo'lgan

iy himoya tizimi sezilarli darajada kuchaytirilib, pensiya va nafaqa miqdorlari oshirildi, reabilitatsiya xizmatlari kengaytirildi hamda zamonaviy protez-ortopediya vositalari bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yildi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida infratuzilma moslashtirilib, "inklyuziv muhit" yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim sohasida inklyuziv ta'lim bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida teng sharoitlarda bilim olishi ta'minlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalariga

Bundan tashqari, nogironligi bo'lgan insonlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashini qo'llab-quvvatlash maqsadida ish beruvchilarga qator imtiyoz va preferensiyalar berilmoqda, maxsus ish o'rinlari tashkil y tayyorgarlik va qayta tayyorlash dasturlari yo'lga qo'yilmoqda. Ularning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun moliyaviy ko'mak va subsidiya mexanizmlari ham joriy

Bandlik tarkibini shakllantirishning xorij tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki,

mehnat bozorini samarali tashkil etishda davlat siyosati, kasbiy tayyorgarlik tizimi, xususiy sektor faolligi va hududiy iqtisodiy salohiyatni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda bandlik siyosati faqat ish o'rinlari yaratish bilan cheklanmay, balki mehnat resurslarini zamonaviy kasblarga yo'naltirish, yoshlar va ayollar bandligini qo'llab-quvvatlash, norasmiy bandlikni qisqartirish hamda aholini qayta tayyorlash mexanizmlari bilan uyg'un

O'zbekiston sharoitida ushbu iqsa, kasb-hunar ta'limini mehnat bozori talabi bilan bog'lash, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, raqamli bandlik shakllarini kengaytirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni ish bilan ta'minlash muhim yo'nalish

Shuningdek, xorij tajribasi asosida bandlikni rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, ish beruvchilar uchun soliq va subsidiya imtiyozlarini joriy etish, hududlarning ixtisoslashuvi asosida yangi ish o'rinlari vofiqdir. Bu esa aholining doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi, norasmiy mehnat

alanish O'zbekistonda barqaror, samarali va inklyuziv mehnat bozorini rivojlantirishga zamin yaratadi. Natijada mamlakatda aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy o'sishning ijtimoiy



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 oktabrdagi 841-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

мит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М. – Л. 1995. Экономическая теория. Хрестоматия. – М.: Высшая школа. 1995. –С. 25.

икардо Д. Начало политической экономии и податного обложения. –М.: Звено, 1910. -С.52.

габекян Р.Л., Авагян Г.Л. Современные теории занятости. –М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2001. -С.

аршалл А. Принципы экономической науки. Пер. с англ. Изд. Группа «Прогресс», «Университет», 1993. – Т.3. - С. 109.

6. О‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi sayt ma’lumotlari asosida tayyorlandi.